

Urolov Umid Xolmurotovich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil tadqiqotchisi
podpolkovnik*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarning g‘oyaviy tarbiyasida oilaning roli tarixiy va bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Unda oila o‘z mohiyati va vazifasiga ko‘ra mafkuraviy muassasa ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *mafcura, g‘oya, oila, mafkuraviy muassasa, mafcura ob’ekti, inson ongi, mafkuraviy amaliyot.*

В этой статье рассматриваются роль семьи в идеологической воспитации молодёжи и его анализ с точки зрения настоящего времени. В этом случае, семья по значению и функции является идеологическим институтом.

Ключевые слова: *идеология, идея, семья, идеологический институт, объект идеологии, человеческий разум, идеологическая практика.*

There have been analyzed the role of family and and ideological upbringing from the present point of view. In this case, the family according to its substance and functions is ideological institute.

Key words: *Ideology, idea, family, ideological institute, object of ideology, ideological, human consciousness, ideological practice.*

Ijtimoiy hayotda ayrim muassasalar o‘z xususiyati va vazifasiga ko‘ra mafkuraga bevosita daxldor muassasalar hisoblanadi. Mafkura o‘z mohiyatiga ko‘ra bo‘linmas va yaxlit mexanizm bo‘lganligi uchun ham uning amaliyotini mafkuraviy muassasalar va unda faoliyat yurituvchi mafkurachi shaxslarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Mafkuraviy muassasalar deganda moddiy tovar va maxsulotlar ishlab chiqarmaydigan asosan, inson ongini rivojlantirish yoki yanada takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan, faoliyati bevosita inson ongiga yo‘naltirilgan ijtimoiy institutlar tushuniladi. Ular doirasiga oila, mahalla, barcha ta’lim muassasalari (ya’ni, maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari), ijodkorlik uyushmalari (masalan: Yozuvchilar uyushmasi kabilar), radio va televideniya hamda siyosiy partiylar va boshqa axborot yaratuvchi hamda uni uzatuvchi muassasalar kiradi. Diniy mazmundagi mafkuralar dunyoviy mazmundagi mafkuralardan farqli o‘laroq yuqorida sanab o‘tilgan mafkuraviy muassasalar qatorida maxsus tashkil etilgan ibodatxona (masjid, cherkov, sinogogiya va xakozo)lardan ham mafkuraviy muassasa sifatida foydalananadilar.

Jamiyatdagi barcha institut va muassasalar ham mafkuraviy muassasa hisoblanavermaydi. Biror muassasaga mafkuraviy muassasa sifatida yondashishning asosiy mezoni sifatida uning muayyan bir mafkura ta'sirida ekanligi va unda g'oyalarni singdirish amalga oshirilayotganligi e'tiborga olinadi.

Barcha mafkuralarda mafkuraviy amaliyotni tashkil etishda jamiyatning o'ziga xos subatomi bo'lган oila mafkuraviy muassasa sifatida asosiy rolni o'ynaydi.

Ma'lumki, oila bu – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh bo'lib, uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan bo'ladi. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari - inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi [4,63-b.].

Jamiyatdagi barcha oilalar mafkura uchun ob'ekt hisoblanadi. Oilalarga kirib bora olgan mafkuralar uchun oila o'z a'zolariga ana shu mafkura g'oyalarini singdiruvchi mafkuraviy muassasa rolini o'taydi. Ta'kidlash kerakki, tarixan barcha mafkuralar oilaga aynan mana shunday tamoyillar orqali yondashib kelgan. Ular o'zlaridagi eng asosiy g'oya va kategoriyalarni aynan oila orqali kishilar ongiga yetkazgan. Bunga misol sifatida tarixchi Narshaxiy tomonidan yozib qoldirilgan Arablar tomonidan Buxoro xalqiga islam g'oyalarini singdirish jarayoni keltirish mumkin: "Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni to'g'ri topdi va shu yo'l bilan u musulmonchilikni o'rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni majbur etdi" [3, 123-b.].

Arablar bu ishlari orqali dastlab Buxoro shahridagi oilalarni keyinchalik esa, butun Muovvoraunaxrdagi oilalarini islam mafkurasi uchun mafkuraviy muassasa bo'lishiga harakat qildilar. Ular oilalarga kirib borgach u yerda Islom mafkurasidagi barcha g'oya va kategoriyalarni kundalik turmush asnosida kishilarning ongi va qalbiga kiritib borishdi. Islom mafkurasining amaliyoti shunday ustalik bilan tashkil etilishi va dastlabki vaqtlardanoq oilaga ushbu mafkura targ'ibotchilari tomonidan mafkuraviy muassasa sifatida qaralishi xalqimiz hayotida islamni din sifatida mustahkam o'rashishiga olib keldi. Keyingi qisqa vaqt ichida bu hududdan diniy va dunyoviy bilimlarda arab ulamolari bilan bellasha oldigan, hatto ularni ham ortda qoldirgan allomalar yetishib chiqdi. Xususan, Buxoro shahrining o'zida nisbatan qisqa muddat davomida kuchli islamiy muhit vujudga kelib, bu shahar butun O'rta Osiyo uchun islam dinining markazi ya'ni "Qubbatul Islom" darajasiga ko'tarildi.

Ko'rinish turibdiki, tarixan mafkuraviy amaliyotda oilaning o'ziga xos funksiyasi mavjud bo'lган. Bu funksiya orqali jamiyatda amalga oshishi o'ta qiyin bo'lган mafkuraviy amaliyot ham oilalarda kundalik turmush bilan bevosita bog'langan holda

doimiy amal, kundalik yumush ko‘rinishida amalga oshirilgan. Tarixan muayyan mafkurani oiladan barqaror o‘rin egallashi mazkur mafkurani amaliyotda eng kuchli mafkuraviy muassasaga ega bo‘lishiga olib kelgan. Bu hol ana shu mafkurani mafkuraviy raqobat o‘ta kuchli bo‘lgan davrlarda ham yashovchanligini ta’minlagan. Oilaga kirib bora olmagan yoki u yerdan yuzaki joy olgan mafkuralar esa, amaliyotda yuz beradigan mafkuraviy raqobatlar davrida so‘zsiz ravishda jamiyat miqiyosidagi mavqeidan ham ayrilgan.

Bizning davrimizga kelib oilaning mafkuraviy amaliyotda tutgan o‘rni barcha davrlarga nisbatan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ma’lumki, dunyodagi har bir jamiyatning o‘ziga xos oila tizimi bor. Bizning jamiyatda oila tizimining o‘ziga xos yutuqli tomonlari shundaki, hozirda jahonning ba’zi (ayniqsa G‘arb) mamlakatlarida oila inqirozi ketayotgan bir sharoitda milliy mentalitetimizning o‘ziga xosligi va davlatimizni oilani qo‘llab-quvvatlash borasida olib borayotgan siyosati natijasida jamiyatimizdagi oilaviy muhit sog‘lom saqlab qolinmoqda. Jamiyatimizdagi oilaviy munosabatlarning yana bir yutuqli jihat shundaki, bizda oilaviy tarbiya jarayoni juda uzoq muddatni tashkil etadi. Unda nafaqat yosh avlod tarbiyalanadi balki, tarbiyachi (ota-onalarning o‘zi ham bu jarayonda o‘z-o‘zini tarbiyalash hamda farzandlari ta’siri orqali tarbiyalanib boradi. G‘arbda esa, oilaviy tarbiya jarayoni nisbatan qisqa muddat (farzandning 12-14 yoshigacha) davom etadi xalos[2, 643-b.].

Sharqona oila tizimida mavjud bo‘lgan mana shunday omillar mafkuraviy amaliyot jarayonida ijobiy rol o‘ynaydi. Bu omillardan unumli foydalanish uchun esa, albatta, mafkuraviy amaliyotda oilaga va undagi munosabatlarga shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy ahamiyatga molik masala sifatida yondashishni, mustahkam, sog‘lom turmush tarziga asoslangan oilalar – mafkuraviy ijtimoiy institut sifatida milliy va davr ruhi asosida yosh avlodni tarbiyalay olishini nazarda tutish muhimdir[1, 169-b].

Xulosa sifatida aytganda, jamiyatda oilaga nisbatan mafkuraviy muassasa sifatida qaralishi jamiyat mafkurasini oilaga kirib borishini asosiy sharti hisoblanadi. Bu jarayonda oila, undagi ana’nalar, oilada sog‘lom muhitni qaror toptiruvchi omillar bevosita mutaxasislar tomonidan o‘rganiladi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mafkura ob’ektiga aylangan va o‘ziga xos ko‘rinishda mafkuraviy amaliyot (kattalarning kichiklarga yoxud kichiklarning kattalarga g‘oyaviy ta’sir etishi) yo‘lga qo‘yilgan oilalarda albatta maqsadli tarbiya vujudga keladi. Bu vaziyatda oiladagi maqsadli tarbiya jarayoni jamiyat mafkurasining maqsadi bilan uyg‘unlashadi. Oilada o‘ziga xos ko‘rinishda mafkuraviy amaliyotni tashkil etilishi g‘oya va mafkuraviy kategoriyalarni bu jarayonga sodda shaklda kirib borishini ta’minkaydi. Kundalik hayotga moslashgan va nisbatan soddalashgan g‘oyalar hamda borliqni dixotomik (“Oq” va “qora”, “yaxshi” va “yomon” yoki “ezgulik” va “yovuzlik” kabi tushunchalarni birgalikda qo‘llagan holda dunyonи tushuntirish yo‘li) tarzda tushintiruvchi kategoriylar oiladan ertaklar, rivoyatlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi kundalik suhbatlar ko‘rinishida joy egallaydi. Bularni yosh avlodga

yetkazuvchi bobo-buvi yoki ota-onal o‘z so‘zlariga avvalo o‘zlari amal qilishi lozimligini tushunib yetgan holda o‘z mehri va ibrati bilan mafkurachi shaxs rolini bajaradi. Mazkur ma’lumot va harakatlar albatta, oilada tarbiyalanayotgan yosh avlodni qisqa muddat ichida yetuklik darajasiga ko‘tarmasada, lekin ular yosh avlodda sog‘lom e’tiqod va dunyoqarashni qaror toptirishda asosiy rolni o‘ynaydi. Oila muhiti orqali yosh avlodda shakllana boshlagan sog‘lom e’tiqod va dunyoqarash hayot sinovlarida ushbu avlod uchun tayanch nuqta vazifasini bajaradi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda har bir inson (ayniqsa, oiladagi yoshi kattalar) tomonidan oilaga mafkuraviy muassasa sifatida yondashilishi hamda bu yerda mafkuraviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishi nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Bu masalaga to‘g‘ri yondashgan oila vakillari (ayniqsa yoshi kattalar) mafkura sohasidagi bilimlari orqali o‘zlari va avlodlarining baxtli kelajaklarining mustahkam kafolatiga ega bo‘lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. T.: “Fan”. 2007. - 169-bet.
2. Milliy g‘oya va rahbar ma’suliyati. T.: “G‘ofur G‘ulom” nashr. 2007. - 643-bet.
3. Narshaxiy. Buxoro tarixi. fors tilidan Rasulev A. tarj. T.: “Kamalak”, 1991. - 123-bet.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, №6 T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat nashryoti. 2010. – 63-bet.